

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARIDA
KREATIVLIK KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING METODIKASI****Abdullayeva Zarnigor Evadullo qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti, II bosqich tayanch doktoranti

abdullayevazarnigor44@gmail.comORCID: [0009-0009-9959-2758](https://orcid.org/0009-0009-9959-2758)

Anotatsiya. Mazkur maqolada kreativlik tushunchasi, uning mohiyati va nazariy asoslari berilgan. Shuningdek, yangi, original g‘oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topish, pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish haqidagi ilmiy ma‘lumotlar asosida yoritilgan. Maqolada kreativlikning modeli haqida ham so‘z yuritilgan. boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan. Shu bilan birga ijodkor o‘qituvchining o‘ziga xos sifatleri, xarakteri ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, innovatsiyalar, hayotiy ko‘nikma, stereotiplar, yangi g‘oyalar, komfort zona, psixologik masofa, tanqidiy fikrlash, ixtiro.

**METHODOLOGY OF DEVELOPING CREATIVITY SKILLS IN FUTURE
PRIMARY EDUCATION TEACHERS**

Annotation. This article presents the concept of creativity, its essence, and theoretical foundations. It also sheds light on the creation of new, original ideas, unconventional forms of thinking, finding successful solutions to given problems, and developing creative qualities in educators based on scientific information. The article also discusses the model of creativity. Effective methods for developing creativity skills for future teachers studying in the field of primary education are described. In addition, the distinctive qualities and character of a creative teacher are also highlighted.

Keywords: creativity, innovations, life skills, stereotypes, new ideas, comfort zone, psychological distance, critical thinking, invention.

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРЕАТИВНОСТИ У БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие креативности, ее сущность и теоретические основы. Также на основе научных данных освещаются вопросы создания новых, оригинальных идей, нестандартного мышления, успешного нахождения решений поставленных задач, развития у педагогов качеств креативности. В статье также говорится о модели

креативности. Для будущих учителей, обучающихся по направлению начального образования, изложены эффективные методы развития навыков креативности. Наряду с этим представлены индивидуальные качества и характер творческого учителя.

Ключевые слова: креативность, инновации, жизненные навыки, стереотипы, новые идеи, зона комфорта, психологическое расстояние, критическое мышление, изобретение.

Kirish Ba'zan odamlar tanqidiy fikrlash ijodkorlikni cheklaydi deb o'ylashadi, chunki u ehtiyotkor tahlilni talab qiladi. Aslida bu noto'g'ri tushuncha. Tanqidiy fikrlash va ijodkorlik bir-birini to'ldiradi. Ular birgalikda o'quvchilarga "qolipdan tashqarida fikrlash", taxminlarni sinab ko'rish va yangilik bilan foydalilikni birlashtirgan g'oyalar yaratish imkonini beradi. Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik tushunchasi (lot, ing. «create» – yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativ fikrlash - bu faqat maktabdagi ko'nikma emas, balki hayotiy ko'nikmadir. [5] Kreativ fikrlash faqat o'quvchilar uchun emas - u o'qituvchilar uchun ham zarur ko'nikmadir. Kreativlikni oshirish o'qituvchini kuchli, yangiliklar bilan to'ldirilgan, muammolarda o'zlashtirilgan fikrlarini ijodiy yondashuvlar orqali ifodalashga o'rgatadi. [2] Inson miyasi o'z ishini osonlashtirish, ko'p kuch sarflamaslik uchun stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va hamma qabul qilgan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, media mahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rin tutadi. [1] Insonlar ommadan ajralmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Shuningdek, hammaning fikriga qo'shilish mustaqil fikrlashdan ko'ra osonroqdir. Shuning uchun ko'p insonlar aynan qoliplar asosida fikrlashni xush ko'radilar. Ba'zi hollarda insonda istamagan holda ham ajoyib fikr tug'ilishi mumkin. Uni saqlab qolish va rivojlantirish uchun sharoit va shijoat talab qilinadi. Tayyor berilgan bilimlarni qabul qilish bilan ijodkorlik shakllanmaydi. Masalan, o'zbek tilida so'zlarni, grammatikani yodlash orqali insho yozib bo'lmaydi. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur, hech kimda yo'q g'oyalarni ayta olish, noodatiy qarorlar qabul qilish muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kreativlik atamasini ilk bor D.Simpson 1922-yilda fanga kiritgan va tafakkurning nostandart usuli deb ta'rif bergan. Kreativlikni o'rganish bo'yicha Rossiyada A.M.Matyushkin, A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy, V.N.Drujinin kabi olimlar ish olib borganlar. Guilfordga ko'ra kreativ fikrlash divergent fikrlash bo'lib, muammoning bir emas, ko'plab noodatiy yechimlarini

topishdan iborat. [7] Amerikalik olim D. Veksler “Kreativlik fikrning shunday turi, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi”, — deb ta’rif beradi. 1987-yilda esa Kreativlik otasi nomi bilan mashhur bo‘lgan Pol Torrans 4ta kreativlik ko‘nikmasini aniqlagan:

- ravonlik;
- moslashuvchanlik;
- o‘ziga xoslik;
- yaratuvchanlik.

Pol Torransning olib borgan tadqiqotlarida har bir shaxsda kreativlik ko‘nikmasini rivojlantirish va baholash mumkin. [4] Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassisleri o‘zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Bunda ular E.P.Torrensning 1987-yildagi kreativ tafakkurni aniqlovchi testidan foydalanishadi. Bu test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatini tashkil etishdagi faolligi, tezkor fikrlashni baholaydi. [8]

Tahlil va natijalar. Kreativlik tushunchasini soddaroq qilib tushuntiradigan bo‘lsak, masalan, mashinaning 4ta baloni bor, lekin boshqacha bo‘lishi mumkinku, 3 ta baloni, yoki u uchishi, hatto suzishi ham mumkin. Ijodkor inson hammadek fikrlashni yoqtirmaydi, u qolipdan chiqishni, o‘zgacha bo‘lishni xohlab qoladi. Ijod - barcha yangi g‘oyalar va innovatsiyalarning asosidir. [5] Aynan o‘sha yorqin uchqun texnika va ixtirolarning rivojlanishiga olib keladi. Agar Microsoft asoschisi Bill Geyts mashhur Windows dasturini yaratmaganida nima bo‘lar edi? Yoki smartfon yoki bluetooth qurilmalari ixtiro qilinmaganda nima sodir bo‘lardir? Shubhasiz, bu qurilmalar ba’zi odamlarning ijodiy mahsulidan kelib chiqqan, ya’ni kreativlikning mahsulidir. [3]

Har bir inson tug‘ilganda o‘ziga xos, kreativlik qobiliyati bilan tug‘iladi, lekin bu ko‘nikmani rivojlantirish hayotidagi keyingi qadamlarga bog‘liq bo‘ladi. Ijodkorlikning hali tug‘ilmay yo‘q bo‘lish sabablari juda ko‘p. Agar bo‘lajak pedagoglar buyruqlarga rioya qilishga va belgilangan fikrlash namunalari amal qilishga odatlangan bo‘lsa, qanday qilib ijodiy fikr yuritadi? Va eng muhimi, g‘oyalarni qanday yaratadi? Oliy ta’limda katta g‘oyalarni ilhomlantirish uchun qulay muhit yaratilganmi? Demak, ijodiy fikrlashni yaxshilash uchun turli usullardan foydalanish mumkin, talaba-yoshlar uchun ijodkorlikni rivojlantirishda quyidagi 10 ta usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Sayr qilish
- Komfort zonadan chiqish
- Psixologik masofa yaratish
- Kitob o‘qish

- Musiqqa tinglash
- Yozish
- Sogʻlom ovqatlanish
- Bir xillikdan qochish
- Kreativ insonlar bilan vaqt oʻtkazish
- Sinab koʻrishdan qoʻrqmaslik

Shu oʻrinda dars jarayonida qoʻllash mumkin boʻlgan nostandart va kreativlik usullaridan misollar keltiramiz:

1. Dars-munozara usuli: Ijtimoiy ahamiyatga ega va munozarali mavzu boʻyicha oʻqituvchilar tomonidan munozara mavzusi taqdim etiladi. Talabalar eʼlon qilingan mavzu boʻyicha turli fikrlarni bildiradi va himoya qiladi.

2. Biznes oʻyini usuli. Dars jarayonida hayotiy vaziyat yoki muammoni biznes nuqtai nazaridan yechish, dars mavzusiga doir "Biznes oʻyini" tashkil etishdir.

3. Dars-konferensiya. Ushbu turdagi dars oʻrta maktablarda eng koʻp talab qilinadi. Talabalarga konferensiya mavzusi oldindan xabar qilinadi, taʼlim oluvchilar guruhlariga boʻlinib, hisobot uchun mavzu oladi.

4. Dars uchrashuvi. Darsda uchinchi shaxs (yozuvchi, olim, sayohatchi, harbiy, chet ellik va boshqalar) taklif etiladi.

5. Integratsiyalashgan dars. Darslar bir vaqtning oʻzida ikki yoki undan ortiq fan boʻyicha, koʻpincha 2 ta oʻqituvchi tomonidan oʻtkaziladi (adabiyot va fizika, ingliz tili va tabiiy fanlar nazariyasi – kutilmagan kombinatsiya juda qiziqarli boʻladi). Integratsiyalashgan darsning vazifasi turli mavzular va haqiqiy hayot oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatishdir.

6. Didaktik oʻyin. Talabalar dars mashgʻulotlarida turli oʻyinlarni oʻynaydilar: kreativlikni rivojlantirishga undovchi oyinlardan namunalar:

"Bosqinchi sotuvchi"

Talabalar hech kim sotib olishni xoxlamaydigan narsalarni bosqinchi (majburlovchi) sotuvchiga oʻxshab sotishlari kerak. Bunda talabalar oʻsha mahsulotning oʻziga xos xususiyatlari noodatiy fikrlar va usullar bilan yoritib berishlari kerak.

Mashqdan foydalanish uchun namunaviy misollar;

- oʻtmas pichoq;
- singan soyabon;
- eskirgan qatiq;
- eski kalandar;
- pentium IV kompyuter;
- yirtilgan sumka.

"Bugun oʻqishga qanday yoʻl bilan keldingiz" bu savolni har bir talabaga beriladi va ularning javobi takrorlanmasligi kerak. Eng muhimi yolgʻon ishlatish

mumkin, kreativ bir-birini takrorlamaydigan javoblar berishadi: taksida keldim, samolyotda keldim, uchar gilamda keldim, oq otda keldim.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilaridan o'z fani yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga, ta'limdagi samarali metod va usullardan ham xabardorlikni talab etadi. Chunki kelajakdagi yangi innovatsiyalar va ixtirolarning barchasi aynan kreativ ko'nikma orqali vujudga keladi. Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga ega bo'lib, ijodkor o'qituvchi bo'lish uchun ko'proq kreativ insonlar bilan birga hamsuhbat bo'lish, do'st bo'lish tavsiya etiladi. Esda tutish kerakki, ijodkorlikni majburlab bo'lmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kreativ pedagoglarning kamligi ta'lim tizimimizning dolzarb muammolaridan biridir. Bunga bir qancha sabablarni keltirish mumkin. Ulardan biri o'z ustida ishlamaslikdir. Kreativ o'qituvchi bo'lish uchun qobilyat tug'ma bo'lishi kerak emas, aslida. Shuni ta'kidlash joizki, jamiyat bir xillikdan zerikdi, eski o'quv jarayoni endi jahon talablariga javob bermaydi. Shunday ekan kreativ fikrlaydigan pedagoglarga muvaffaqiyatga erishadi, har sohada ustun ekanligini namoyon qilishadi. Kreativlik- bu majburlab erishiladigan narsa emas. Kreativlik- bu davr talabi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Yuvashov, B. Akbarov. *KREATIV FIKRLASH*. O'quv qo'llanma. 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun. – Namangan, 2024. – 176 b.
2. FAYZULLAYEVA GULCHEXRA SHARIPBOYEVNA Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri, dotsent. *O'QITUVCHI KREATIV POTENSIALINI OSHIRISHDA P5BL YONDASHUVI QONINIYATLARINING AHAMIYATI*. —Sifatli ta'limni tashkil etishda shaxs kreativ potensialini oshirishning dolzarb masalalari mavzusidagi yosh olimlar, doktorantlar, magistrant va talabalarning an'anaviy Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari - Jizzax viloyati: Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi nashri, 2024 yil.
3. Oripova Muslima Ulug'bek qizi Farg'ona davlat universiteti II bosqich magistranti. *KREATIVLIK TUSHUNCHASI, MAZMUN MOHIYATI VA UNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI*. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences; VOLUME 2
4. N. Jurayeva. Mahoratli pedagog. 2025-yil sentabr, 9-son.
5. K. S. Oslanova. *4K modeli ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion usullardan foydalanish*. Uslubiy qo'llanma. Jizzax 2024-yil. 34-b
6. Boshlang'ich ta'lim. 2025-yil 4-son. 32- b

7. Qurbonova Go'zal Rajab qizi, Buxoro davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, *MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA NOAN'ANAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING ROLI*. "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 11

8. Rahmonova M.Q, Karamov B.K, Sulaymonova M.E/ Kreativ pedagogika/ Darslik. Chirchiq., "Osiyo tur", 2024.-228 bet.